GLOBALLASHUV DAVRI BADIIY FILMLARIDA MILLIY O‘ZLIK VA QADRIYATLAR MUAMMOSINING KINOSEMIOTIKA VOSITASIDA IFODALANISHI

Niyazova Xafiza Xakimovna
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti
“Kino san’ati va audiovizual tadqiqotlar” bo‘limi yetakchi ilmiy xodimi
ORCID: https://orcid.org/0009-0006-7935-0071
E-mail: hafizaasal@gmail.com
Science ID: FTN-0726-0180
DOI: 10.67620/artdsgn.690013

Annotatsiya. *Mazkur maqolada 2006–2026-yillar oralig‘ida semiotik tizim va vizual poetika uyg‘unligida yaratilgan “Chashma”, “Sukunat”, “Suv yoqalab”, “Yozsiz yil”, “Issiq non”, “Olma” kabi o‘zbek badiiy filmlarida qo‘llanilgan ramzlar tadqiq etilgan. Ushbu ramzlar filmda qanday ma’nolarni anglatgani ochib berilgan. Filmlar semiotik va nazariy jihatdan qiyoslanib o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *badiiy film, kinosemiotika, ramzlar, metafora, vizual poetika, obraz, qahramon, rejissyor, kinematografik til.*

Аннотация. *В данной статье исследуются символы, использованные в узбекских художественных фильмах 2006–2026 годов, таких как «Родник» («Chashma»), «Актриса» («Sukunat»), «Вдоль реки» («Suv yoqalab»), «Год без лета» («Yozsiz yil»), «Горячий хлеб» («Issiq non») и «Яблоко» («Olma»), созданных в гармоничном сочетании семиотической системы и визуальной поэтики. Раскрываются значения, которые эти символы передают в кинокартинах. Фильмы изучены в сравнительно-семиотическом и теоретическом аспектах.*

Ключевые слова: *художественный фильм, киносемиотика, символы, метафора, визуальная поэтика, образ, персонаж, режиссёр, кинематографический язык.*

Abstract. *This article examines the symbols utilized in Uzbek feature films produced between 2006 and 2026, including “The Spring” (“Chashma”), “Silence” (“Sukunat”), “Along the Water” (“Suv yoqalab”), “A Year Without Summer” (“Yozsiz yil”), “Hot Bread” (“Issiq non”), and “The Apple” (“Olma”), which combine semiotic systems with visual poetics. The study elucidates the symbolic meanings conveyed within these films through a comparative semiotic and theoretical analysis.*

Keywords: *feature film, film semiotics, symbols, metaphor, visual poetics, image, character, director, cinematic language.*

KIRISH

Kino sintez san’at turi bo‘lgani bois uni mukammal yaratish imkoniyatlari nihoyatda keng. Bir filmda bir necha san’atlarni uyg‘unlashtirgan holda turli ranglar, ramzlar va belgilar orqali asar

g‘oyasi va dramaturgiyasini kinematografik tilda yanada mukammal ochib berish imkoniyati mavjud. Biroq barcha filmlarda ham semiotikaga murojaat etilaverilmaydi. Bu ijodkorning fikrni bevosita yoki bilvosita yetkazishiga, qolaversa, ochiq dialoglar emas, balki ramzlar, metaforalar, makon va detallar semiotikasiga ustunlik berish istagiga bog‘liq. Shunday filmlar borki, ular, asosan, ramzlar orqali ochib beriladi. “Kinoma’no — bu faqat kino tili vositalari bilangina ifoda etiladigan va undan tashqarida mavjud bo‘la olmaydigan ma’nodir. U aynan kinematografga xos bo‘lgan semiotik unsurlarning o‘ziga xos zanjirli bog‘lanishi natijasida yuzaga keladi. Kinofilm o‘z davri madaniyati va san’atining ajralmas qismi bo‘lib, mafkuraviy kurash maydonida ham o‘z o‘rniga ega” [4; 25]. Bunday yondashuv ijodkorning milliy o‘zlik, madaniy kodlar, qadriyatlar va an’analarni kinematografik talqinda o‘ziga xos usulda ifoda etish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

METODOLOGIYA VA FILM KORPUSI

Jahon kinematografida Andrey Tarkovskiy, Ingmar Bergman, Mikelandjelo Antonioni, Sergey Paradjanov, Devid Linch, Akira Kurosava, Abbas Kiarostami kabi rejissyorlar ijodida kinosemiotika asosida suratga olingan filmlar juda mashhur. O‘zbek kinematografida Shuhrat Abbosov, Ali Hamroyev, Elyor Eshmuhamedov, Jahongir Qosimov, Yolqin To‘ychiyev, Hotam Fayziyev, Umid Hamdamov, Ozodbek Mannopov filmlarida qahramonlar ruhiy olamini, dramaturgik konfliktini aynan ramziy, metafora orqali ochib berishga intilish seziladi.

1-jadval. Filmlarni semiotik va nazariy qiyoslash jadvali

Film	Markaziy ramziy belgi (simvol)	Madaniy-arxetipik ma’nosi	Globallashuv va milliy o‘zlikdagi o‘rni
“Chashma” *Rejissyor Yo.To‘ychiyev, 2006*	**Chashma / Buloq**	Ma’naviy manba, ildizlar, hayotning sof va tiniq boshlanishi	Global shovqin-suron fonida milliy o‘zlikning asl manbai va ma’naviy ildizlarga qaytish
“Sukunat” *Rejissyor Yo.To‘ychiyev, 2008*	**Sukunat / Olma**	Ichki vijdon, soflik va o‘z-o‘zi bilan yuzma-yuz kelish	Ommaviy madaniyat agressiyasiga qarshi ichki vazminlik va fitratni saqlab qolish
“Suv yoqalab” *Rejissyor J.Qosimov, 2009*	**Suv**	Ruhiy poklanish, xotira, vaqt oqimi	Global vizual tilda milliy psixologizmni ochish va o‘tmish xotirasini tiklash
“Yozsiz yil” *Rejissyor H.Fayziyev, 2011*	**Fasl / Sovuq / Qor**	Ma’naviy tanazzul, ruhiy muzlash, yolg‘izlik	Globallashuv oqibatidagi begonalashuv va oilaviy qadriyatlar inqirozi
“Issiq non” *Rejissyor U.Hamdamov, 2019*	**Non / Tandir**	Milliy-madaniy kod, oila mustahkamligi, halollik	Mehnat migratsiyasi va transformatsiya davrida madaniy DNKni saqlab qolish
“Olma” *Rejissyor O.Mannopov, 2026*	**Olma**	Poklik, mukammallik, axloqiy tanlov	Umuminsoniy va milliy axloqiy mezonlar tutashuvi

MUHOKAMA

O‘zbekiston kinematografida “Chashma” (rej. Yo.To‘ychiyev, 2006), “Sukunat” (rej. Yo.To‘ychiyev, 2008), “Suv yoqalab” (rej. J.Qosimov, 2009), “Yozsiz yil” (rej. H.Fayziyev, 2011), “Issiq non” (rej. U.Hamdamov, 2019) va “Olma” (rej. O.Mannopov, 2026) filmlarida g‘oya aynan semiotika orqali ochib berilgan.

Xususan, “Suv yoqalab” hamda “Chashma” filmlarida – suv, chashma; “Yozsiz yil” filmida – fasl, sovuqlik va qor; “Issiq non” filmida – non va tandir; “Sukunat” hamda “Olma” filmlarida – olma ramzlari qo‘llanilgan. Ushbu filmlarda o‘zbek oilalaridagi muayyan muammolarga murojaat etiladi va ular milliy kod, madaniy o‘zlik, axloqiy tarbiya unsurlari orqali ifodalanadi. Semiotik yondashuv, asosan, mualliflik filmlarida qo‘llaniladi va u mavzu hamda g‘oyani ochishda o‘ziga xos talqin usuli vazifasini bajaradi. Jumladan:

- **“Chashma”** filmida **chashma obrazi** ma’naviy manba manbai bo‘lib, turli muammolarni suvga aytib, undan xalos bo‘lish, asliyatga qaytish semiotik kodini ifodalaydi. Suv poklik ramzi sifatida qahramonni qiynayotgan muammolardan forig‘ etib, uni ruhan yengil tortishiga xizmat qiladi. ““Chashma”, ... “Issiq non” filmlarida insonning genetik xotirasi mavzusi o‘z ildizlari va manbalari bilan hamohang tarzda yanada qaytadan yangray boshlaydi. Mualliflar hayotning turli qirralarini obrazli va aniq ko‘rsatishga muvaffaq bo‘lishgan” [3; 320].
- **“Suv yoqalab”** filmidagi **ariqda oqayotgan suv obrazi** vaqt oqimi va ruhiy poklanish belgisidir. Shuningdek, u tabiatning, xususan, o‘simliklar olami rivojida muhim o‘rin tutadi. Panoramali kadrlar orqali suv oqimining aks ettirilishi qahramonlarning o‘tmish xotiralari va vijdoniy kechinmalarini ifodalaydi.
- **“Yozsiz yil”** filmida **fasl, sovuq va qor razmlari** uyg‘unligiga erishilgan. Qish fasli, sovuq va qor obrazlari mushtarakligi ma’naviy tanazzul hamda oilaviy munosabatlardagi ichki muzlashni badiiy jihatdan mukammal ifodalagan.
- **“Issiq non”** filmidagi **non va tandir obrazlari** o‘zbek madaniyatining markaziy madaniy kodi bo‘lib, oilaviy tomirlar ustuni sifatida ifoda etilgan. Filmda uch avlod ayol taqdiri aks ettirilgan [5; 143]. Global mehnat migratsiyasi oqibatida yemirilayotgan ushbu oilada tandirdagi olov va issiq non tasviri (yirik plandagi kadrlar orqali) tarqoq oilani birlashtiruvchi o‘ziga xos milliy-ma’naviy o‘zlik sifatida namoyon bo‘ladi. Oila a’zolarining tandir atrofida jam bo‘lishi, ona bag‘ridagi issiq taftni his etish; xamirni bor kuchi bilan mushtlash hayot sinovlariga bardoshli bo‘lish va non yopish jarayoni — qahramonlarning yo‘qolib borayotgan udumlariga e’tibor qaratib, madaniy o‘zligiga qaytishga bo‘lgan intilishini namoyon etadi.

Shuningdek, “Issiq non” filmida yana bir qancha ramziy ma’noni anglatuvchi detallar qo‘llanilgan. Masalan, kalit. “Kalit – sir ramzi. Undan ma’lum narsalarni saqlashda foydalaniladi. Filmda kalitning bir necha marta ko‘rsatilishi bu oilada sir bisyorligiga ishora qiladi. Hamma narsa qulflangan, sirli. Hattoki yozilgan vasiyatnoma ham seyfda saqlanadi. Butun dunyo bilan aloqa qilish mumkin bo‘lgan telefon ham shu matohning ichida. Demak, bu oilada erkinlik yo‘q” [6; 98].

- **“Sukunat”** filmidagi **olma va sukunat obrazlari** qahramonning mehr-muhabbatga, xotirjamlikka, axloqiy mezonlarni saqlab qolishga bo‘lgan ishtiyoqini ifodalaydi. “Olma – muhabbat ramzi bo‘lib, Lobar doimo uni o‘zi bilan birga bo‘luvchi sevgan insoni bo‘lishini istagani uchun ko‘tarib yuradi” [7; 32].
- **“Olma”** filmidagi **oyoq ostiga tashlab, toptalgan qizil olmalar** ko‘plab ma’nolarni anglatadi. Xususan, bunday qizil olma toptalgan mehr-muhabbat, yo‘qotilgan poklik, boy berilgan bokiralik, axloqiy tanlov va sinov ramzi sifatida qo‘llanilgan. Tashqi ko‘rinishidan juda chiroyli

ushbu olmaning ichidan qurt chiqishi qahramonning ichki ruhiy olamini metaforik jihatdan chuqur ifodalib beradi va uning yoshligida toptalgan nomusiga ishora qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti “Kino san’ati va audiovizual tadqiqotlar” bo‘limining ***“Zamonaviy O‘zbekiston kino san’atida tarixiy xotira reprezentatsiyasi”*** mavzusidagi tadqiqot ishi doirasida olib borilgan ilmiy o‘rganish davomida bugungi kun O‘zbekiston kinematografida har bir filmda ma’lum detallar va ramzlardan foydalanilishi aniqlandi. Biroq har doim ham butun film ramzlar orqali ifodalanmaydi. Aynan semiotika asosiga qurilgan filmlarda ramziy ma’noni anglatuvchi ifoda vositalari g‘oyani ochishda asosiy badiiy manba hisoblanadi. Bunday yondashuv aksariyat hollarda mualliflik filmlarida ko‘zga tashlanadi. Ijodkor ushbu ramziy, metaforik obrazlar orqali yetkazmoqchi bo‘lgan fikrini tushunish uchun kadrlarni sinchkovlik bilan kuzatish, vizual poetik uslubni aniqlash va mavzuni aniq bilish muhim o‘rin tutadi. Globallashuv davrida badiiy filmlarda milliy o‘zlik va qadriyatlar muammosini aynan semiotik yondashuv asosida, o‘ziga xos milliy kolorit va kinematografik bayon uslubi orqali ifodalash zamonaviy davrda muhim masalalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Абул-Касымова Х.Н.** Киноискусство Узбекистана. — Ташкент: Издательство литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1985. — 280 с.
2. **Барт Р.** Семиотика. Поетика: Избранные работы / Пер. с фр. — Москва: Прогресс, 1989. — 616 с.
3. **Karimova N.G.** O‘zbekiston kino san’ati: muhrlangan vaqt (o‘zbek, ingliz va rus tillarida). — Toshkent: Silk road media, 2022.
4. **Лотман Ю.М.** Семиотика кино и проблемы киноэстетики. — Таллин: Ээсти Раамат, 1973. — 138 с.
5. **Niyazova X.X.** Badiiy kinoda zamondosh obrazi [Monografiya]. — Toshkent: “Science and Innovation” nashriyoti, 2025. — 232 b.
6. **Niyazova X.X.** Umid Hamdamov ijodida obrazlar talqini / “O‘zbekiston kino san’atining ijtimoiy funksiyalari va poetikasi” ilmiy maqolalar to‘plami. — T.: “Fan”, 2023. — B. 90–100.
7. **Niyazova X.X.** O‘zbekiston zamonaviy badiiy kinosida ayol obrazi (Yolqin To‘ychiyev ssenariy va filmlari misolida) // “O‘zDSMI xabarlari”. — № 2. 2017. — B. 26.